



**FARG'ONA VILOYAT
STATISTIKA BOSHQARMASI**

**FARG'ONA VILOYATIDA
QURILISH ISHLARI**

2021-yil yanvar-dekabr

2021- yil yanvar-dekabr oylari uchun Farg'ona viloyatida qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida, Farg'ona viloyatida jami 7 024,2 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2020-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 115,8 %ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari hajmining tarkibi, %da

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.

13,0 Yirik qurilish tashkilotlari

63,8 Kichik korxona
va mikrofirmalar

23,2 Norasmiy
sektor

Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxona va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.

Ma'lumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu — o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.

Nodavlat mulk

97,7%

Davlat muki

2,3%

**Qurilish sohasi mamlakatimiz
milliy iqtisodiyotining barqaror
o'sishiga o'zining munosib hissasini
qo'shib kelayotgan sohalardan
hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat
ko'rsatayotgan korxona va
tashkilotlarning soni 2021-yilning
mos davri bilan solishtirganda o'sish
sur'ati 109,3 foizga oshgan.**

Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni ushbu sohaning quyidagi yo'nalishlari kesimida qaraganda:

Binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 55,6 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 109,3 foizga oshgan;

Fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 10,5 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 108,4 foizga oshgan;

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 33,9 foiz ulushni va 109,6 foiz o'sish sur'atini tashkil etdi.




Hududlar kesimida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar, birlik

	holatiga:		o'tgan yilga nisbatan, %da
	01.01.2021-y.	01.01.2022-y.	
Farg'ona viloyati	3 236	3 538	109,3
Farg'ona sh.	866	957	110,5
Qo'qon sh.	322	344	106,8
Quvasoy sh.	115	129	112,2
Marg'ilon sh.	330	331	100,3
Oltiariq	112	117	104,5
Qo'shtepa	104	101	97,1
Bag'dod	159	161	101,3
Buvayda	133	135	101,5
Beshariq	81	95	117,3
Quva	138	140	101,4
Uchko'prik	173	197	113,9
Rishton	71	86	121,1
So'x	44	79	179,5
Toshloq	132	131	99,2
O'zbekiston	83	98	118,1
Farg'ona	97	121	124,7
Dang'ara	123	137	111,4
Furqat	73	83	113,7
Yozyovon	80	96	120,0


2021-yil yanvar-dekabr oylarida
Farg'ona viloyatida qurilish ishlari

2022-yil 1-yanvar holatiga ko'ra Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari ulushi, %da



Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 910,7 mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2020-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 176,6 %ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2020-yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan 4,5 % punktga ko'payib, 13,0 %ni tashkil etdi.

2021-yil yanvar-dekabr oylarida
yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan
qurilish ishlari



Ma'lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Marg'ilon shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 42,5 %i yoki 2020-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 10,7 marta ko'p), Qo'qon shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 20,2 %i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 113,6 foizga ko'p) va Beshariq tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 10,4 %i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,6 marta ko'p)ga to'g'ri keldi.



2021-yilning yanvar-dekabr oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 63,4 %i to'g'ri kelib, 2020-yilning yanvar-dekabr oylari ko'rsatkichiga nisbatan 3,5 foizga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2020-yilning mos davriga nisbatan 109,3 %ni tashkil etgan holda 4 480,2 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.




Kichik korxona va mikrofirmalar, ulushi, %da



Ma'lumot uchun: joriy hisobot davrida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko'rsatkichi So'x tumani (178,2 mlrd. so'm yoki umumiy hajmga nisbatan 91,9 %), Farg'ona tumani (176,1 mlrd. so'm yoki 91,9 %), Bag'dod tumani (411,4 mlrd. so'm yoki 90,9 %) va Farg'ona shahriga (1093,9 mlrd. so'm yoki 70,6 %) to'g'ri keldi.


Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi 23,3 %ni tashkil etdi yoki 1633,3 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2020-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 112,8 %ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 164,1 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 6860,1 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda 2,3 % va 97,7 %ni tashkil etdi.



2021-yil yanvar-dekabr oylarida
Farg'ona viloyatida qurilish ishlari

Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

2021-yil yanvar-dekabr oylarida

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 64,4 %i yoki 4521,0 mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan 841,0 mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 18,6 %ni tashkil etdi.



Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi 1487,7 mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 32,9 %ni tashkil etdi.



Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan 2192,2 mlrd. so'm yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 48,5 %ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida qurilish ishlari 2021-yil yanvar-dekabr oylarida


	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, %da	Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya va qayta qurollantirish (mlrd. so'm)
Farg'ona viloyati	7 024,2	115,8	4 521,0
Farg'ona sh.	1548,8	108,5	881,8
Qo'qon sh.	488,8	105,4	325,5
Quvasoy sh.	258,9	110,3	90,7
Marg'ilon sh.	1135,1	123,2	1035,4
<i>tumanlar:</i>			
Oltiariq	260,3	114,7	92,4
Qo'shtepa	293,0	102,6	190,5
Bag'dod	452,4	101,1	276,7
Buvayda	215,3	149,9	90,9
Beshariq	161,8	152,3	117,7
Quva	257,2	110,5	241,8
Uchko'prik	198,0	133,2	137,7
Rishton	141,7	133,0	60,6
So'x	194,0	124,6	78,4
Toshloq	254,4	105,1	139,6
O'zbekiston	203,8	143,8	174,0
Farg'ona	191,6	139,4	54,7
Dang'ara	315,0	105,3	183,4
Furqat	228,6	158,5	203,8
Yozyovon	225,4	111,9	145,3

* Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda

2021-yil yanvar-dekabr oylarida
Farg'ona viloyatida qurilish ishlari



Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

Bino va inshootlar qurilishi

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 11,7 %ni tashkil etib, 2020-yilning yanvar-dekabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan 2,1 % punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2020-yilning yanvar-dekabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan 1,3 % punktga ko'payib, 59,7 %ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2020-yilning yanvar-dekabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan 3,4 % punktga kamayib, 28,6 %ni tashkil etdi.

Ulushi, %da

Yirik qurilish
tashkilotlari

Kichik korxona
va mikrofirmalar

Norasmiy
sektor



2021-yil yanvar-dekabr oylarida
Farg'ona viloyatida qurilish ishlari


Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlar

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 24,8 %ni tashkil etdi va 2020-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 6,6 % punktga kamaydi.


Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 74,8 % (7,3 % punktga ko'payish) hamda norasmiy sektorning ulushi 0,4 %ni tashkil etdi (0,7 % punktga kamaydi).




Ulushi, %da



Yirik qurilish tashkilotlari



Kichik korxona va mikrofirmalar



Norasmiy sektor



2020-yil
Yanvar-dekabr




2021-yil
Yanvar-dekabr

2021-yil yanvar-dekabr oylarida
Farg'ona viloyatida qurilish ishlari


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2020-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 3,2 % punktga kamaydi va 10,7 %ni tashkil etdi. Qolgan 89,3 %i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2020-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 3,2 % punktga ko'paydi.



2021-yil yanvar-dekabr oylarida
Farg'ona viloyatida qurilish ishlari

Qurilish ishlari hajmi yuqori shahar va tumanlar



Ma'lumot uchun: qurilish ishlarining eng yuqori hajm ko'rsatkichi Farg'ona sh. (1 548,8 mlrd. so'm), Marg'ilon sh. (1 135,1 mlrd. so'm), Qo'qon sh. (488,8 mlrd. so'm), hamda Bag'dod t. (452,4 mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi

Tel.: 73 241-98-42